

# Bolalar Muqaddas Kitobi Tasvirlab beradi

Yoshua  
ma'suliyatni  
bo'yniga  
oladi



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:  
Janie Forest

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:  
Ruth Klassen

...tomonidan ishlab chiqarilgan:  
Bible for Children [www.M1914.org](http://www.M1914.org)

©2013 Bible for Children, Inc.  
Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz  
yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.  
Lekin u sotilmaydi.



Muso vafot etgandi.  
Endi Xudo Isroilni  
etakchisi qilib  
Yoshuani tanladi.



Agar Isroilliklar  
Xudoga itoat etishsa,  
Xudo albatta YOshua  
va ularga g'alaba  
berishini va'da  
berdi.





Isroilliklar  
doim  
Yoshuaga  
ergashib,  
Xudoga  
itoat  
etishga  
va'da  
berishdi.






Yoshua  
Ierixon  
shahrini  
o'rganib  
kelish  
uchun ikkita  
ayg'oqchini  
jo'natdi.





Isroilliklarni  
birinchi jangi  
o'sha erda  
bo'lishi  
kerak edi.





Kimdir Ierixon shohiga shaharda  
ayg'oqchilar yurganligini aytdi.  
Shunda shoh ularni topib kelishni  
buyurdi. Ayg'ochilar Rohilani  
uyida yashiringan edi.








Shoh lashkarlari ularni aynan o'sha erdan izlashni boshlashdi. Ular kelganda, Rohila ayg'oqchilarni zig'ir o'tlari ichiga yashirdi.




Shoh lashkari  
ketganda,  
Rohila  
ayg'oqchilarni  
shahar  
devoridan  
tushurib,  
qochishga  
yordam  
berdi.




Lekin nima  
uchun Rohila  
ularga yordam  
berdi?




Chunki Xudo  
ular bilan  
ekanligini  
Rohila bilardi.  
Ayg'oqchilar  
uni va oilasini  
asrab qolishga  
va'da berishdi.




Ierixonga kirishdan oldin  
Isroilliklar Iordan daryosini  
kesib o'tishi kerak edi.



Ammo u erda ko'prik yoq edi.  
Odamlar qanday qilib daryodan  
o'tishadi?



Xudo Yoshuaga oliyruhoniylar  
lashkar va O'nta Amr yozilib, ichiga  
solingan Ahd Sandig'ini etaklab  
borishi kerakligini aytdi.





Oliyruhoniylar daryo bo'yiga  
kelganda, Xudo mo'jiza qildi.  
U daryoni o'rtasidan er ochdi.






Ularning barchasi daryodan o'tib bo'lgach, qirg'oqqa va Kan'on qirg'og'i bo'yiga 12tadan tosh qo'yishdi. Bu Xudoning ularga ko'rsatgan marhamatini unutmaslik uchun qilindi.






Ierixon  
devorlari  
juda qalin va  
mustahkam  
edi.





Yoshua jangga  
hozirlanib  
turganda, Xudo  
osmondan  
O'z qo'shinini  
Qo'mondonini  
erga yubordi.





U Yoshuaga  
bu jang unga  
g'alaba olib  
kelishini aytdi.





Xudo Yosuaga Ierixon devori  
atrofida olti kun davomida har kuni  
bir martadan, ettinchi kuni esa etti  
marta aylanishi kerakligini aytdi.





Keyin karnay chalib, baqirishlari kerakligini ham aytdi. Shundan so'ng devor qulashi kerak edi.




Yoshua va uning qo'shini  
Xudo amr etgandek qilishdi.


Ierixonliklar ularning  
ustidan kulishdi.

Ammo ettinchi  
kuni karnayni

7



chalishgandan  
keyin Ierixon  
devori quladi!





Faqatgina Rohilaning  
uyi omon qoldi. U  
derazasidan qizil  
arqonni chiqarib,  
ilib qo'ygan edi.







Yoshuaning odamlari uni  
va oilasini qutqarib olishdi.  
So'ng Xudo va'da  
qilgandek Ierixon  
barbod qilindi.





Shahardan qolgan  
barcha oltin, kumush  
va boshqa boyliklarni Yohua  
tantanali ravishda Xudoga  
nazr qildi.




So'ng: "Shaharni  
qaytadan tiklanmasin, bu  
Xudoga qarshi," -dedi.





Tez orada  
atrofdagi barcha  
Yoshua haqida eshitishdi va  
Xudo O'z xalqi bilan birga  
ekanligini bilishdi.



Yoshua ma'suliyatni bo'yniga oladi  
Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan  
...dan topilgan  
Yoshua 1-6

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."  
Zabur 119:130



Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar sis Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.



Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga  
ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:  
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman,  
Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun  
o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men  
sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot  
bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel,  
men Senga itoat qilishim uchun va Sening  
frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har  
kuni suhbatlashing! Yuhanno 3:16

